



UO'K:811.111'373.45+811.512.133'373.4

Iskandarbek KUCHKAROV,
ADPI 1 bosqich tayanch doktoranti
E-mail: ula20061985@gmail.com

ADU dotsenti U.Rahmonov taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA EKSTRALINGVISTIK OMIL ASOSIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilshunoslik fanida so'z o'zlashtirish jarayonida ekstralingvistik omilning o'rganilishi, o'zlashma so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelish davrlari, mustaqillikning va globallashuv jarayonining o'zbek lug'at boyligiga ta'siri, filolog olimlarning so'z o'zlashish jarayonidagi baxsli fikr va mulohazalari, so'z o'zlashishga sabab bo'luvchi omillar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistika, ekstralingvistika, lingvokulturalogiya, o'zlashma so'z, leksikologiya.

ЗАЙМСТВОВАНИЕ СЛОВ НА ОСНОВЕ ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ФАКТОРА В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается изучение экстралингвистических факторов в процессе заимствования слов в лингвистике, периоды проникновения заимствованных слов в узбекский язык, влияние независимости и глобализации на словарный запас узбекского языка, спорные мнения и взгляды филологических учёных о процессе заимствования слов, а также факторы, способствующие заимствованию лексики.

Ключевые слова: Лингвистика, экстралингвистика, лингвокультурология, заимствованное слово, лексикология.

WORD BORROWING BASED ON EXTRALINGUISTIC FACTORS IN LINGUISTICS

Annotation

In this article the study of extralinguistic factors in the process of word borrowing in the field of linguistics, the periods during which loanwords entered the Uzbek language, the impact of independence and globalization on the Uzbek vocabulary, the controversial opinions and views of philological scholars regarding the word borrowing process, and the factors that contribute to the borrowing of words are explored.

Key words: Linguistics, extralinguistics, linguoculturology, loanword, lexicology.

Kirish. Ma'lumki, butun borliq yaralibdiki barcha tirik mavjudotlar orasida insongagina so'zlar orqali muloqot qilish, ma'lum bir jamiyat uzra o'zaro so'zlar, iboralar yaratish va ular orqali muloqot qilish kabi buyuk bir ne'mat ato etilgan. Bir til asrlarga teng bo'lgan uzoq muddatda paydo bo'lib, vaqt deya atalmish sinovda olovda sayqallangan po'lat kabi shakillanib, o'zida bir yoki bir necha xalq-elatlarning qadimiy madaniy va ma'rifiy boyliklari, ijtimoiy va ruhiy borlig'i, urf-odatlar va adabiy merosini o'zida mujassam etadi. Shu bilan bir qatorda o'ziga xos bo'lgan fonetik, leksik, frazeologik va grammatik xususiyatlari, kundalik hayotdagi so'zlovchi hech qanday qiyinchiliksiz foydalanayotgan iboralar, ularning rivojlanish tarixi, o'zaro boshqa bir tillar bilan ta'siri unikal bir xarakterga egadir. Dunyodagi hech qaysi bir tillar hoh sharq mamlakat tillari, hoh g'arb davlatlari tillari bo'lmasin o'zlari boshqa bir til ta'siridagi rivojlana olmaydi. Shu sabab tilning lug'at boyligi rang – barang o'zgarishlar uchun ochiq va dinamik tizimdir. Uzoq vaqtlar davomida barcha tillarda kundalik ehtiyojdan kelib chiqqan holda yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi, qisman eskirgan so'zlar iste'moldan chiqadi yoki o'z tub ma'nosini yo'qotib, ma'no ko'chish hodisasi sodir bo'ladi. Mustaqillikka erishishimiz, xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishimiz, hamda globallashuv hodisasi bu fenomenni sodir bo'lishini tezlatib yubordi. Bu jarayonda bir tilga boshqa bir dominant tildan ekstralingvistik omillar asosida so'zlar va atamalar kirib kela boshladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik tarixiga nazar solsak, quyidagi voqealarni keltirishimiz mumkin. 1990-yil 20-iyunda mustaqillik deklaratsiyaning qabul qilinishi jamiyatimizning o'z mustaqilligiga erishishini huquqiy, iqtisodiy va siyosiy mazmun bilan to'ldirdi va ulkan bir tarixiy voqeaga aylandi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi davlat mustaqilligi e'lon qildi. Unda O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti va Respublika davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi hamda

1-sentabr Mustaqillik kuni - milliy bayram deb belgilandi. Mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, 1991-yil dekabr oyida O'zbekiston MDHga 1992-yil 2-martda esa BMTga a'zo bo'ldi. 1993-yil 24-oktabr kuni BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi, shu bilan birgalikda, BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti — YUNESKOga ham a'zo bo'lgan. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, bir qator horijiy davlatlar bilan o'zaro elchixonalar tashkil etildi. Bu aloqalar orqali iqtisodiyot, umumjahon ekologiyasi, fan – texnika, ta'lim – tarbiya, tibbiyot va madaniy boyliklar almashinuvi sodir bo'la boshladi. Tashqi olam bilan munosabatda bo'lish, turizmning rivojlanishi, chet el xom ashyolarining davlatimizga import sifatida kirib kelishi, hamda media olamining rivoji o'zbek tili lug'atining ichki tizimidan tashqari holatida ekstralingvistik omil asosida o'zlashgan so'zlar hisobiga boyishiga ulkan turtki bo'ldi.

O'zlashgan so'zlar dastlab neologizm holatida qabul qilingan bo'lsada, vaqt o'tgan sayin qabul qilgan mahalliy tilning ichki qonuniyatlariga moslashib bordi. Ularning tabiiy va aniq bo'lishi, fonetik qayta o'zgargan holda moslashishi, grammatik jihatdan singib borishi, boshqa so'zlarni yasashda foydalanilishi va kundalik nutqda faol qo'llanilishi ularni go'yoki mahalliy so'zlar qatorida o'rin olishiga turtki bo'ldi [3].

Morfologik, sintaktik, fonetik masalalarni sistem holatida o'rganish, o'zlashma so'zlarning lug'oviy materialini sistem o'rganishga qaraganda osonroqdir. Shu sabab o'zbek tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlarning an'anaviy yondashuvdagi tadqiqatlari kam uchraydi [2].

O'zlashma so'zlar vaqt ta'sirida ma'lum bir qo'llanilishda o'zgarishlarga uchraydi. Dastlab yangi atama sifatida o'zlashgan so'zlar vaqt o'tgan sari odatiy zamonaviy termin maqomiga ega bo'la boshladi. XX asr oxirlaridagi ko'plab sohalaridagi rivojlanishlar qatori tilshunoslik ham tubdan o'zgara boshladi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek tiliga rasmiy davlat tili maqomi berilishi bu jarayonga katta turtki bo'ldi va ko'plab chet tillaridan

o'zlashma so'zlar kirib kela boshladi. Misol uchun bankrot, debitor, instruktor, menejer, tyutor, kripto va boshqalardir.

O'zbek tiliga o'zlashma so'zlarning kirib kelishida ko'zga tashlanarlik ma'lum davrlar bo'ldi:

Arab istilosidan keyingi arab tilining ta'siri.

XV asrga qadar fors – tojik tilining ta'siri.

Rus mustamlakasidan keying davrdagi rus tilining ta'siri.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ngi davrdagi yevropa tillari va ingliz tilining ta'siri.

Hozirgi kompyuter asri butun jahon bo'ylab ulkan o'zgarishlar, texnik va iqtisodiy taraqqiyot va axborotlashtirish asri sifatida o'z o'rniga ega bo'lishga ulgirdi. Globallashuv jarayonidagi axborot yangiliklarining tezkorlik bilan tarqalishi va deyarli barcha tillarga kirib borishi o'sha tillarning leksik tarkibini qisman o'zgarishiga turki bo'ldi. Tezkorlik bilan kirib kelayotgan neologizmlar ommaviy ravishda kundalik faoliyatimizga kirib kelishi va keng foydalanilishi bilan parallel ravishda tilimizning lug'atlarida aks eta olishi teng sodir bo'lmayapti. Ko'plab so'zlar misol uchun snikers, kitkat va flesh kabi o'zlashma so'zlarning ma'nolari lug'atlarda qayd etilmagan. Hozirda kompyuter texnologik terminlari va zamonaviy texnika so'zlari baynalmilal soha so'zlari bilan bir qatorda ishlatilini kelinmoqda.

Mustaqillikdan keyin o'zbek tili so'z boyligi ham o'zlashgan so'zlar hisobiga ham kengaydi va rivojlandi. Bunga bir qancha sabablar bo'ldi.

1. Istiqloldan so'ng davlatimizda iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy – marifiy va ko'plab sohalaridagi o'zgarishlar.

2. Globallashuvdagi ilm – fan va texnik rivojlanish ta'siri.

3. Chet tilda so'zlasha oladigan fuqarolarimizning o'zlashma so'zlar va atamalardan kundalik nutqida ko'plab ishlatishlari.

O'zlashma so'zlarning qaysi xorijiy tilga mansubligi alohida maxsus qisqartmalar bilan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'rsatilib, avvalambor ularning asl ma'nosi va o'zlashgandan keying monosemantikligi (bir ma'noligi) yoki polisemantligi (ko'p ma'noligi) haqida ma'lumot berilgan. Ushbu lug'atda manba til sifatida asosan 16 xil til ko'rsatib o'tilingan. Ular ingliz, ispan, italyan, nemis, rus, fransuz, golland, polyak, chex, yunon, xitoy, mo'g'ul, lotin, arab, fors – tojik, hind tillaridir. "Adabiyotshunoslik terminlarining rus – o'zbekcha izohli lug'at"[2] hamda "Qisqacha siyosiy lug'at"[4] kabi manbalarda esa skandinaviya tillari va Portugal tilidan o'zlashgan so'zlar ham berilgan. Ko'rsatib o'tilgan tillardan o'zlashgan so'zlar ma'lum bir sohaga aloqador atama bo'lganligi uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'rsatilmaganlik ehtimoli bor.

Odatda o'zlashgan so'zlar kirib kelayotgan tilning fonetik, grammatik, orfografik qonuniyatlari ta'siridan o'tadi. Bu jarayonlardan keyin o'zlashma so'zlarni ajratib olish birmuncha qiyin bo'lib qoladi. Bu muammo bilan birinchilardan bo'lib nemis filologlari shug'ullangan va o'zlashgan so'zlarni aniq qilib farqlab berish bir qancha sabablarga ko'ra qiyin ekanligini aytib o'tishgan. Shunga qaramay tilshunoslik olamida o'zlashgan so'zlarning tasnifi bo'yicha ko'plab ishlar bajarildi va ilmiy fikr – mulohazalar berilindi[2].

Ma'lum bir tilga o'zga tildan so'zlarni turli xil sohalar orqali o'zlashtirilsa, ularning miqdori ham salmoqli bo'ladi. Hozirgi amaldagi ingliz tili so'z boyligining ko'p qismining shakllanishida ijtimoiy – siyosiy va lingvomadaniy munosabatlari sababli asosan lotin – fransuz va skandinaviy xalqlari so'zlarining o'zni kattadir. Bu so'zlar asosan kundalik hayotda ishlatiladigan agro – texnik predmetlar, voqea – hodisalarni bildiradigan so'zlar bo'lganligi uchun ular amaliy so'z boyligi degan nomga ega bo'lishdi.

Ko'p asrlar davomida xalqlarning turli sohalarida ijtimoiy – siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar natijasida so'zlarning bir tildan boshqa tilga o'zlashishini lingvokulturologik jarayon sifatida ko'rishimiz mumkin. Muloqotda so'z oluvchi til va manba til xalqlari ijtimoiy – madaniy holati deyarli bir xil bo'lsa, so'z o'zlashtirish darajasi oz miqdorda bo'ladi. Agarda bir xalq ikkinchi xalqdan rivojlanish borasida ustunroq bo'lsa, rivojlanishi pastroq bo'lgan xalqqa ijtimoiy – siyosiy va madaniy – ma'rifiy ehtiyojlarni to'ldirish maqsadida so'zlar ko'chadi. Buning natijasida o'zga xalqqa tegishli bo'lgan predmet va voqea – hodisalar qabul qiluvchi tilga kirib keladi. Bunday holatda

o'zlashtirilayotgan so'zlar asl shaklda kirib keladi va oqibatda tilning lug'at tarkibi yangi so'zlar bilan boyidi.

O'zlashtirilgan so'zlarning ijtimoiy lingvistik holati jamiyat va til orasidagi muhim munosabatlari qatorida bo'lib, jahon va mahalliy tilshunos olimlari quyidagi fikrni bayot etadilar (Kostomarov V.G[17]; Lisakova I.P[20]; Pospelova G.M[23]; Shveytser A.D[28]; Benvenist E[6] va boshqalar). "Til orqali insonning inson bilan yoki tabiat bilan munosabatini aks ettirish jamiyat haqida so'zlashni anglatadi. Bu tarixiy tasodif emas, balkim zaruriy bog'liqlikdir"[7].

Ilmiy izlanish davomida lug'at rivojida tilning ichki tuzilish qonuniyatlari bilan farqlanganda ekstralingvistik voqelikning ahamiyati haqida ham gapiramiz. Ijtimoiy lingvistik o'z nomi bilan ijtimoiy va lingvistik xarakteriga egadir. Lingvistik konsepsiyaning lingvistik tabiatini tavsiflashda lingvistik omillar, ijtimoiy holatini tavsiflashda esa faqat nolingvistik omillar hisobga olinadi. Bu o'zlashtirilgan so'zlarning kelib chiqishini va rivojini aniq tasvirlashga ko'mak beradi.

Lingvistik faktorlar tilning shakliy va tizimli xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillardir. Ekstalingvistik faktorlar – til rivojiga tashqi ta'sir o'tkazuvchi omillar misol uchun adabiyot – san'at, ilmiy – texnikaviy rivoj, psixologiya, ijtimoiy – siyosiy tizim va ko'plab omillardir.

Bir necha madaniyatning o'zaro aloqasi leksik so'z o'zlashtirishda, ya'ni chet til so'zining ona tiliga kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bu so'zlarning paydo bo'lishi va kelajagi asosan bir jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy holatini aks etuvchi til holatiga bog'liqdir. Til holati va kommunikativ munosabati tarixan belgilanadi va o'tmishdagi vaziyatdan kelib chiqadi, shuningdek kelajakdagi rivojlanish holatini saqlaydi[16]. Bu hodisani o'rganishda ijtimoiy omillarning so'z o'zlashtirishga to'g'ridan to'g'ri ta'sirini va kirib kelgan so'zlarning jamiyatimiz hayotidagi ahamiyatini ko'rib chiqishimiz kerak. Ularni tahlil qilish lingvistik va ijtimoiy xususiyatlariga bog'liqdir.

Uzoq vaqtdan buyon o'zlashma so'zlarning yaralishiga sabab bo'lgan omillar ko'plab baxslarga uchragan va munozaralar olib borilgan. So'z o'zlashtirishning lingvist va nolingvistik sabablari XIX - XX asrlar oralig'ida tadqiqotlarda keng ko'lamda ko'rib chiqilgan.(Balli Sh.[5]; Ogenko N.I.[22]). O'tgan asr o'rtalarida Boduen de Kurtene[1], V.A. Bogoroditskiy[8], V.M. Jirmunskiy[14], B.A.Larin[18] singari filologlar leksik so'z o'zlashtirishni sotsiologik ko'lamda tavsiflashgan. B.A.Larin fikricha tilning taqdiriga bevosita ta'sir etuvchi omillar bu siyosiy kuchlar, madaniyat va ijtimoiy yashash sharoitlaridir[19].

V.A.Bogoroditskiy, "Odatda so'z o'zlashtirish dastlab yuqori qatlam namoyondalari tomonidan, so'ngra oddiy xalq tomonidan kundalik nutqqa ko'chadi. Bu ko'p hollarda ijtimoiy va madaniy omillarga ko'ra so'zlarni o'zlashtirish yoki o'zlashtirmaslikka bog'liqdir" deya izohlaydi[9].

Boduen de Kurtene o'zlashma so'zlarni asosan lingvistik va ekstralingvistik omillarga ya'ni azaldan hududiy jihatdan bir – biriga qo'shni bo'lgan, qarindosh urug'chilik bilan bog'lana olgan, tillari esa umum negizga ega bo'lgan yoki o'xshash bo'lgan turlariga ajratadi. Uning nazlida asosiy sabab bu geografik jihatdan yaqin joylashuvi va qardosh millat bo'lishligidir[10].

Darhaqiqat ekstralingvistik omillarni tahlil qilayotganda lingvistik omillarga alohida e'tibor qaratish kerak.

XXI asr xorijiy filolog olimlarining asarlarida duolinguallik va ularning nufuzi, individual dualinguallik, multilinguallik[13], muammolari ham ko'rsatib o'tilgan. V.Y. Rozenzveyg asosan so'zlovchi xalqning ijtimoiy – siyosiy holatini tasvirlagan[24].

"Ma'lum bir tilning elementi boshqa bir tilda paydo bo'lib, mustaqil holda rivojlanib ketishi imkonsiz" deya so'z yuritadi E.Haugen so'z o'zlashtirishning tarixiy xususiyatiga yondashgan holda va bu jarayonning birma bir bosqichini o'rganishni e'tirof etadi[1]. V.Y.Rozenzveygning fikricha til aloqalari nazariy masaladan allaqachon davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy masalaga aylanib bo'lgan[25]. Shuningdek chet el zamonaviy tadqiqotchilar tillar bilan o'zaro bog'lanishda ekstralingvistik omillarni eng keraklik ahamiyatga ega deya ta'riflashadi. "Tillarning o'zaro munosabatida ularning o'zgarish darajasi, ma'lum bir qismi yo'q bo'lgunga qadar o'zgarishi va tezligi ijtimoiy – tarixiy sharoitga bog'liqdir"[25].

Ta'kidlab o'tilgan olimlarning o'zaro fikridan ma'lum bo'ldiki, tillarning aloqa munosabatining sotsiolingvistik mohiyatini ochishda so'z o'zlashtirish asoslari va sababi keng ko'lamda munozaralarni taqozo etyapti. Binobarin chet tilidan so'zlarning boshqa tilga ko'chishida ekstralingvistik sabablar asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bir tildan boshqa bir tilga o'zlashgan so'zlar bir xalqning tarixiy – madaniy, ijtimoiy – siyosiy jarayonidagi xilma xil qatlamlarga

aloqador turli tushunchalarni bildiruvchi, ma'lum bir ijtimoiy qatlam tomonidan bir ma'no va mazmunda ishlatiladigan til birliklaridir. Demak, fan-texnika rivojlanishi davom etgan sari ingliz tilidan kirib kelayotgan o'zlashma so'zlar ham oshib boraveradi. Bu esa o'zbek tili lug'at boyligi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday til lug'at miqdori obyektiv va subyektiv omilga bog'liq holda oshib boraveradi va hech qanday til bunday tashqi omillarning ta'sirizis rivojlana olmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Haugen E. The ecology of language - Stanford, 1972.- XIYV – 345 p
2. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T. O'qituvchi. 1979. 6-bet.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-tom. 498-bet.
4. Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug'at. –T. O'zbekiston. 1983. 6-bet.
5. Балли Ш. Французская стилистика. - М.: Иностранная литература, 1961.-394 с.
6. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Под ред. Ю.С. Степанова. - М.: Прогресс, 1974. - 447 с.
7. Бенвенист Э. Общая лингвистика. Под ред. Ю.С. Степанова. - М.: Прогресс, 1974. - 31 с.
8. Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. М. -Л.: Соцэк-гиз, 1935.-218 с.
9. Богородицкий В.А. Общий курс русской грамматики. М. -Л.: Соцэк-гиз, 1935.-29 с.
10. Бодуэн де Куртене И.А. Проблемы языкового родства. // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963. - т.2. - 342 -С. 347.
11. Бодуэн де Куртене И.А. Проблемы языкового родства. // Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963. - т.2. - 342 С.
12. Габинский М. Проблема лексического заимствования и единый критерий. //Учёные записки Института языка и литературы АН МССР, т. 10,1961.-С. 149-160.
13. Гавранек Б. К проблематике смешения языков. // Новое в лингвистике, вып. 6. - М.: Прогресс, 1973. - С. - 86.
14. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание: Избранные труды. - Л.:Наука, 1976.– 692с.
15. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание: Избранные труды. - Л.:Наука, 1976. – 169с.
16. Жлуктенко Ю.А. Языковые ситуации и взаимодействие языков. - Киев: Наукова думка, 1989. - 3 с. 204 с.
17. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. - М.: Педагогика Пресс, 1994. -248 с.
18. Ларин Б.А. К лингвистической характеристике города. // История русского языка и общее языкознание. - М.: Просвещение, 1977. - С. 189 - 199.
19. Ларин Б.А. К лингвистической характеристике города. // История русского языка и общее языкознание. - М.: Просвещение, 1977. - С. 192.
20. Лысакова И.П. Тип газеты и стиль публикации. Опыт социолингвистического исследования. - Л.: ЛГУ, 1989. - С. 14 - 22.
21. Нейматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т: 1995. 35-bet.
22. Огиенко И.И. Иноземные элементы в русском языке. История проникновения заимствованных слов в русский язык. - Киев, -1915. - 186 с.
23. Поспелова Г.М. Социальные ориентации общества в зеркале прессы. // Вестник МГУ. Серия 10. Журналистика, 1991. - № 5 - 6. - С. 22 - 34, 44 -59.
24. Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. // Новое в лингвистике, вып. 6.1972. - С. 18
25. Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. // Новое в лингвистике, вып. 6.1972. - С. 5-22.